

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**Sh.D.Xonbabayev**

Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishga tayyorlashning tarkibiy tuzilishi va yo'nalishlari .....227

**M.S.Xoshimov**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq o'yinlari orqali kommunikativ kompetentligini takomillashtirishning metodologik asoslari .....231

IQTISODIYOT

**X.X.Bozarov**

Kichik biznes subyektlarida iqtisodiy inqirozga qarshi kurashish strategiyasini takomillashtirish .....235

**U.X.Gulmatov**

O'zbekiston milliy transport tizimining iqtisodiy asoslari.....239

FALSAFA

**M.M.Abduraxmonova, D.O.Akramov**

Umumta'lim maktablarida xavf guruhidagi oila farzandlarini ijtimoiylashuvida mahalla ijtimoiy xodimining ahamiyati.....246

**Q.Sulaymonov**

O'rta asr Islom Sharqi allomalarining gnoseologik va teologik qarashlarining qiyosiy induksiyasi .....253

**X.A.Yulbarsova**

Integrativ yondashuv asosida bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari.....258

**I.A.Asatulloev**

Alfred Adlarning qalb konsepsiyasida inson kamolotining ijtimoiy omillar bilan shartlanganligi.....264

**I.A.Suvanov**

Axborot jamiyatida insonni kutayotgan yangi muammolar xususida ayrim mulohazalar .....268

**M.Y.Ergashov, Z.I.Narziyev**

Qomusiy alloma Abu Bakr Muhammad Zakariyo ar-Roziyning ma'naviy va ilmiy merosi.....273

**M.K.Soipova**

Yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda fan va islom qadriyatlarini tushunchasining mazmun mohiyati.....277

**I.B.Toshpo'latov**

Jamiyat taraqqiyotida filantropik harakatning ahamiyati.....281

**З.С.Касимова**

Цифровизация и гуманитарное образование: сотрудничество и инновации .....284

SIYOSAT

**Z.Sh.Turg'unboyev**

O'zbekiston Respublikasining Afg'onistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni mo'tadillashtirishda xalqaro maydondagi tashabbuslari.....290

**O'.N.Ahmedova**

Davlat va jamiyat boshqaruvida rahbar kadrlar ma'naviyatini yuksaltirish zarurati.....296

**M.T.Musayev**

Globalashuv sharoitida missionerlikning ijtimoiy-siyosiy munosabatlarga ta'siri.....300

**G.S.Ro'ziyeva**

Madaniyat va milliy xavfsizlik sohasida davlat siyosatini belgilashning o'ziga xosligi .....305

TARIX

**B.X.Matboboyev, A.A.Aloxunov**

O'zbek-Xitoy qo'shma xalqaro arxeologik ekspeditsiyasining Mingtepa shahar xarobasida olib borgan ilmiy izlanishlari natijalari xususida .....311

**J.Sultonov**

Chingizxonning markazlashgan davlatga asos solishida ittifoqchilik va diplomatiyaning roli....318

**X.X.Azimov**

Qadimgi Xitoy manbalarida Usun davlati.....329

**J.Z.Axmedov**

**QADIMGI XITOIY MANBALARIDA USUN DAVLATI****ГОСУДАРСТВО УСУНЬ В ДРЕВНЕКИТАЙСКИХ ИСТОЧНИКАХ****USUN STATE IN ANCIENT CHINESE SOURCES****Azimov Xurshid Hakimovich** O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi,  
t.f.f.d. (PhD),**Annotatsiya**

Maqolada qadimgi Markaziy Osiyo mintaqasida bir necha asr hukmronlik qilgan Usun davlati haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu davlat haqida ma'lumotlar dastlab xitoy yozma manbalarida tilga olingan. Manblarda Usun davlatining siyosiy, iqtisodiy ijtimoiy hayoti, davlatning joylashuv geografiasiga oid qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari maqolada Usun davlatiga oid tadqiqotlardagi ayrim masalalar tahlil qilingan.

**Аннотация**

В статье содержатся сведения о государстве Усуней, которое на протяжении нескольких столетий управляло древним центральноазиатским регионом. Сведения об этой стране впервые упоминаются в китайских письменных источниках. Источники содержат ценные сведения о политической, экономической и общественной жизни Усуньского государства, а также о географии государства. Кроме того, в статье анализируются некоторые вопросы исследования государства Усунь.

**Abstract**

The article contains information about the state of Usun, which ruled the ancient Central Asian region for several centuries. Information about this country was first mentioned in Chinese sources. The sources contain valuable information about the political, economic and social life of the Usun state, as well as the geography of the state. In addition, the article analyzes some issues in research about the state of Usun.

**Kalit so'zlar:** Xitoy manbalari, Markaziy Osiyo, Usun davlati, siyosiy ma'lumotlar, iqtisodiy ma'lumotlar, ijtimoiy hayot, mamlakat geografiasini

**Ключевые слова:** Китайские источники, Центральная Азия, государство Усунь, политическая информация, экономическая информация, общественная жизнь, география страны.

**Key words:** Chinese sources, Central Asia, Usun state, political information, economic information, social life, country's geography.

**KIRISH**

Usun davlati qadimgi Markaziy Osiyo tarixida iz qoldirgan va bir necha yuz yil hukmronlik qilgan qadimiy xonlik hisoblanadi. Ushbu davlat haqida qadimgi yozma manbalarda bitilgan ma'lumotlar, arxeologik topilmalar orqali bilib olishimiz mumkin. Yozma manbalar ichida qadimiyrog'i bo'lmish xitoy manbalarida mazkur davlatning geografik joylashuvi, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga oid ma'lumotlar mavjud.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Mazkur mavzuga oid ma'lumotlar mil.av. II asrdan to milodiy VI asrga qadar yozilgan birlamchi xitoy manbalari "24 Tarix" (Ershi sishi)ning jildlari "Shiji" (Tarixiy xotiralar), "Xanshu" (Xan [sulolasi] tarixi), "Xou Xanshu" (Keyingi Xan [sulolasi] tarixi), "Jinshu" (Jin [sulolasi] tarixi), "Veysu" (Vey [sulolasi] tarixi), "Beyshi" (Shimoliy [sulolalar] tarixi)larida Usun davlatiga oid ma'lumotlar ilmiy tarjima qilindi. Qolaversa, mavzuning ayrim qirralari A.Xodjayev, N.Karimova, Yu.A.Zuyev, Matsuda Xisao, N.A. Aristov, Yuy Tayshan, Aytboyev Abduxoliq, L.A.Borovkova, Su Beyxay tomonidan o'rganilgan. Ularning tadqiqotlaridagi ma'lumotlar bilan taqqoslash, tahlil, kontent tahlil qilish metodlari orqali tadqiq qilindi.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Usun (烏孫 qadimgi o'qilishi Asuen, inglizcha Wu-sun) davlati haqidagi dastlabki ma'lumotlar Xitoy tarixida 400 yildan ortiq vaqt hukmronlik qilgan Xan (mil.av.206-mil.220 yy.) saroyida yozilgan manbalar "Shiji" (Tarixiy xotiralar) "Buyuk Farg'ona tazkisasi" (Dayyuan lechjuan 大宛列傳) 123-bobi, "Xanshu" (Xan [sulolasi] tarixi) "G'arbiy mamlakatlar tazkisasi" (Shiyuy chjuan 西域傳) 96-bob, "Xou Xanshu" (Keyingi Xan [sulolasi] tarixi)da uchraydi. O'sha paytda xitoy yozma manbalarida qadimgi Markaziy Osiyo davlatlarining joylashuvidagi masofalar qadimgi Farg'ona davlatiga nisbatan olingan. Mazkur manbalarda Usun davlati Buyuk Farg'onaning shimoli sharqida taxminan 2000 li (1076 km) narida joylashgan bo'lib, asosan chorvachilik bilan shug'ullangan. Dastlab, ular hunlarga tobe bo'lib, Xan saroyi bilan aloqa qilmagan. Usun davlati mil.av.II asrning boshlarida paydo bo'lgan va milodiy I asrlardan boshlab mustaqil davlat maqomini yuqotgan. Ushbu davlatning tarix sahnasidan batamom yo'q bo'lganligi haqidagi davrlar turlicha qayd etiladi. Uning hozirgi davrdagi geografik joylashuviga ahamiyat bersak, Qirg'izistonning shimoli Issiqkul atrofi, Qozog'istonning janubiy sharqi Ili vodiysi, Shinjyang Uyg'ur muxtor o'lkasining shimoliy g'arbiga to'g'ri keladi.

O'zbekistonlik olim N.Karimova tadqiqotida qisqacha zikr etilishicha, usunlar mil.av. II asrda Dunxuang hududi atrofida yashagan. Keyinchalik yuechjilar[8:122-141] ularni o'zlarining shimoliy-g'arbiga, ya'ni Tangri-tog'ning sharqi va shimoliy-sharqidagi Qumul (Xami), Barkul (Balikun 巴里坤), Tinchjou (廷州)]<sup>21</sup> hududlariga siqib chiqaradi. Taxminan mil.av. 160 yil Ili vodiysiga ko'chib kelib qudratli davlatga asos soladi [9:174]. Usunlar dastlab yuechjilar bilan birga yashagan. Ular yashagan Dunxuang hududi masalasida A.Xo'jayev Xan davrda yozilgan manbalarda keltirilgan ayrim iyeroglifning toponimik kamchiligidan kelib chiqib, o'sha davrda yuechjilar yashagan Dunxuang hozirgi Gansu o'lkasida emas, balki Urumchiga yaqin Bug'da-tog' atrofida joylashganligiga alohida urg'u beradi. Bundan tashqari, ular yuechjilar bilan yashagan ilk hududlari Sharqiy Turkistonning Urumchi va Qarashar viloyatlardagi Tangritog' (Tyanshan)ning sharqiy qismidan to Xuangxe daryosining yuqori oqimidagi Gansu va Chingxay o'lkalari kirgan [9:156-157].

Usun davlatining poytaxti Qizilqo'rg'on shahri (Chigu cheng 赤谷城) hisoblangan. Ushbu shaharning hozirgi aniq joyi biroz bahsli bo'lib, ayrim tadqiqotlarda u Issiqko'lning janubiy qirg'og'ida joylashgan [11:65] deyilsa, ayrimlarida esa Norin daryosining yuqori qismidan janubi-sharqqa tomon 15 km narida joylashgani zikr qilingan [10:236]. Bundan tashqari, yaponiyalik olim Matsuda Xisao ham xitoy manbalari bo'lmish "Xanshu" (Xan [sulolasi] tarixi) va "Veysu" (Vey [sulolasi] tarixi)da keltirilgan qadimgi Xitoy poytaxtlari Changan va Day shaharlaridan Chigu shahrigacha bo'lgan masofa raqamlar bir-biriga zid, degan ma'lumotlarni keltirib o'tgan. Uning tadqiqotida Chigu shahri Issiqko'lning sharqiy tomonida Norin daryosi bo'yida joylashganligini qayd etiladi [4:229]. Qirg'izistonlik olim N.A.Aristov N.Ya.Bichurin va G'arb olimlarining tadqiqotlariga tayanib, Usun poytaxti Chigu-cheng Issiqko'lning sharqidagi Qizil vodiya joylashgan degan fikrni ilgari surgan [1:29]. Mamlakatda chorvachilik mahsulotlari yetishtiriladi.

Usun hukmdorlari o'zlarini Kunmak (xitoy tilida zamonaviy o'qilishi Kunmo 昆莫 / Kunmi 昆弥) deb atashgan. Mazkur atama ularning ismi emas, balki tituli hisoblanadi. Bundan tashqari ular osmon, yer, kun va oyga sig'ingan. Taxtga o'tirgan hukmdorlar "Kunmo" deb atalib, uning lug'aviy ma'nosi "Yer yuzini quyoshdek boshqarish, idora etish" degan ma'no anglatadi. Undagi "Kun" qadimgi turkiy tilda ifodalangan bo'lib, "quyosh" ma'nosini beradi. Mazkur so'zga qo'shilgan (Mi 弥, bo 伯, mo 莫) esa "hukmronlik qilish, boshqarish" ma'nosini ifodalaydi. Qadimgi usunlar hududidagi qabrlar atrofi quyosh yoki yarim oy shaklda tosh bilan o'ralib, oy yoki quyosh belgisi asosida qilingan. II-I asrlada davlat harbiy jihatdan ancha qudratli bo'lgan. Qolaversa geosiyosiy jihatdan Buyuk ipak yo'lining shimoliy tarmog'ida joylashganligi hamda harbiy jihatdan ancha kuchli bo'lganligi atrofda mamlakatlar, jumladan Qang', qadimgi Farg'ona, Hunlar imperiyasi va Xan davlatlarining manfaatlari to'qnash kelganligiga sabab bo'lgan.

<sup>21</sup>Tinchjou hozirgi Shinjyang Uyg'ur muxtor o'lkasining markazi Urumchi shahriga to'g'ri keladi.

**XULOSA**

Muxtasar qilsak, bizning davrimizgacha yetib kelgan qadimgi xitoy yozma manbalarida Markaziy Osiyo mintaqasida joylashgan davlatlar haqidagi ma'lumotlarni uchratish mumkin. Mazkur manbalardan Markaziy Osiyo tarixida bir necha asr hukmronlik qilgan Usun davlatining geografik joylashuvi, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga oid ma'lumotlarni bilib olishimiz mumkin. Usun davlati mil.av.II asrning boshlarida paydo bo'lgan va milodiy I asrlardan boshlab mustaqil davlat maqomini yuqotgan. Mazkur davlat hozirgi Qirg'izistonning shimoli Issiqkul atrofi, Qozog'istonning janubiy sharqi Ili vodiysi, Shinjang Uyg'ur muxtor o'lkasining shimoliy g'arbida joylashgan bo'lib, poytaxti Qizilqo'rg'on shahri (Chigu cheng) hisoblangan.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Аристов Н.А. Усуни и кыргызы или кара-кыргызы. – Б.: “Илим”, 2001.
2. Бан Гу. Ханшу (班固. 漢書 / 汉书 – Хан [сулоласи] тарихи) // Эршиси ши (24 тарих). 2-жилд. Пекин-Шангхай, 1956-1958.
3. Фан Е. Хоу Ханшу (范曄. 後漢書 / 后汉书 – Кейинги Хан [сулоласи] тарихи) // 3-жилд. – Шангхай, 1956-1958.
4. Мацуда Хисао. Гудай Тяншан лиши дили сюэ янжю (松田寿男. 古代天山地理学研究 – Қадимий Тангритоғнинг тарихий жуғрофиясига оид тадқиқот). – Пекин, 1987.
5. Сима Чян. Шижи (司马迁. 史記 / 史记 – Тарихий хотиралар) // Эршиси ши (24 тарих). 1-жилд. Пекин - Шангхай, 1956-1958.
6. Су Бейхай. Шиюй лиши дили (苏北海. 西域历史地理 – Фарбий мамлакатлар тарихий географияси). – Урумчи, 1988.
7. Вэй Шоу. Вэйшу. (魏收. 魏書 – Вэй [сулоласи] тарихи ) // Эршиси ши (24 тарих). 10-жилд. – Пекин, 1974.
8. Ходжаев А. Из истории древних тюрков (Сведения древнекитайских источников. – Алматы, 2011.
9. Ходжаев А., Каримова Н. Сведения китайских источников по истории государственности Центральной Азии (переводы и исследования). – Ташкент: “Фан”, 2018.
10. Хўжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар (大宛 宛城). – Фарғона: “Фарғона”, 2013.
11. Зуев Ю.А. К вопросу о взаимоотношениях усуней и канцзюй с гуннами и Китаем во второй половине I в. до н. э. (Поход гуннского шаньюя Чжичжи на Запад) // Известия Академии наук Казахской ССР. Серия истории, экономики, философии и права. Вып. 2(5). – Алматы, 1957. – С.62-72.
12. Юй Тайшан. Гузу шинкао (余太山. 古族新考 – Қадимги халқларга оид янги тадқиқот). – Пекин, 2000.